

## O'RTA OSIYO YEVROPA TADQIQOTCHILARI NIGOHIDA

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti o'qituvchisi

**Jumayev Abdimo'min Fayziyevich**

e-mail: [abdumominjumayev71@gmail.com](mailto:abdumominjumayev71@gmail.com)

**Qalandarova Madina Jo'rabek qizi**

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Tel: [+99899 708 16 41](tel:+998997081641)

e-mail: [qalandarovam05@gmail.com](mailto:qalandarovam05@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xonliklar davrida yurtimiz hayotini o'rganish uchun qilingan tadqiqotlar va ilmiy izlanishlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz. O'rta Osiyo yirik materikning qoq o'rtasida joylashgani tufayli hamda dengiz va okeanlardan uzoqda joylashgani sababli juda qurg'oqchil o'lka hisoblanadi. Lekin shunga qaramasdan tabiiy boyliklari ko'p, bu esa Yevropaning ham bu hududlarga qiqishini ortirib bordi.

**Kalit so'z:** Banoras, Rixtgofen, Florio Beneveni, XIX asr o'rtalari, "Yer va uning xalqlari", N.I.Muravyov, Nishopur tog'lari.

**Абстрактный.** В этой статье вы получите информацию об исследованиях и научных исследованиях, проводимых для изучения жизни нашей страны в период ханства. Центральная Азия — очень засушливая страна из-за своего расположения в самом сердце большого континента и удаленности от морей и океанов. Но, несмотря на это, они обладают большим количеством природных ресурсов, что повысило интерес Европы к этим направлениям.

**Ключевые слова:** Банорас, Рихтгофен, Флорио Беневени, середина XIX века, «Земля и ее народы», Н. И. Муравьев, горы Нишапур.

**Abstract.** In this article, you will get information about the researches and scientific research conducted to study the life of our country during the Khanate period. Central Asia is a very arid country due to its location in the heart of a large continent and its distance from seas and oceans. But despite this, they have a lot of natural resources, which has increased the interest of Europe in these areas.

**Key word:** Banoras, Richthofen, Florio Beneveni, mid-19th century, "Earth and its peoples", N.I. Muravyov, Nishapur mountains.

O'rta Osiyo hududi o'zining geografik o'rni hamda tabiiy boyliklari tufayli qadimdan chet elliklarda ko'plab qiziqish uyg'otib kelgan. O'rta Osiyoning geografik o'rniga to'xtaydigan bo'lsak, O'rta Osiyo Yevroosiyo materigining o'rtasida joylashgan. O'lkaning eng janubiy nuqtasi Hindikush tog'larining tarmog'i Safrdko'h tog' tizmasi bilan Nishapur tog'lari tutashgan joyda 34<sup>o</sup> shimoliy kenglikda, eng shimoliy nuqtasi 53,8<sup>o</sup> shimoliy kenglikda, g'arbiy nuqtasi kaspiy dengizining Mang'ishloq yarimorolidagi Tubqarag'ay burnida 50,3<sup>o</sup> sharqiy uzunlikda va sharqiy nuqtasi Savir tog'larining etagidagi Qora Irtish vodiysida 85,6<sup>o</sup> sharqiy uzunlikda joylashgan. O'rta Osiyo o'lakasining geografik kengligi janubiy Yevropa o'lkasi, Afrikadagi Atlas tog'lari geografik kengligiga to'g'ri keladi. U yerlardagi mamlakatlar iliq mo'tadil va subtropik tabiatli mamlakatlar hisoblanadi. O'rta Osiyo yirik materikning qoq o'rtasida joylashgani tufayli hamda dengiz va okeanlardan uzoqda joylashgani sababli juda qurg'oqchil o'lka hisoblanadi.<sup>1</sup> Lekin shunga qaramasdan tabiiy boyliklari ko'p. G'arbiy Yevropaliklarning O'rta Osiyoda bo'lishlariga doir ma'lumotlar unchalik ko'p bo'lmasa-da, lekin diqqatga sazovordir. Aytish mumkinki, mintaqamizga tashrif buyurgan G'arbiy yevropaliklarning ko'plari josus yoki shunchaki qiziqish tariqasida biror ob'ektni o'rganishni maqsad qilgan. O'sha davrda Osiyoga tashrif buyurgan sayyohlarning diqqat markazida Tibet, afsonaviy "dunyo tomi" Pomir va u yerdan shimoli-g'arbga tomon yo'nalgan ikki yo'l: Kaspiyorti va Moskvadan Orenburg orqali Toshkentga eltuvchi pochta yo'li edi.

1812 yilda Hindistondagi ingliz koloniyasining taniqli vakili Vilyam Murkroft topshirig'iga ko'ra Qo'qon xonligiga, shuningdek, Markaziy va O'rta Osiyoning qator yerlariga Mir Izzatullo tashrif buyuradi. Uning sayohati 1812 yil 20 apreldan boshlanib, 1813 yil 16 dekabrgacha – qariyb bir yildan ko'proq vaqt davom etadi. U O'rta Osiyoning Qo'qon, Samarqand va Buxoro yo'nalishlari orqali o'tib, o'z sayohatnomasini ham yozib qoldirgan. Shuningdek, Mir Izzatullo Qo'qon armiyasi, aholisi, tili, ularning diniy e'tiqodlari, pul munosabatlari haqida ham ma'lumot bergan. Chet elliklarning O'rta Osiyoga qiziqishi aynan uch xonlik davrida kuchayadi. Bu esa xonliklarni egallashga bo'lgan istakka aylanadi. Natijada xonlik hududida Buyuk Britaniya va Rossiya elchilari hamda ayg'oqchilari ko'paya

<sup>1</sup> "Geografiya" P.G'ulomov, P.Baratov Toshkent-2017

boshlagan. Rossiya avvalo xonliklarning ichki ahvolini birish maqsadida ular bilan yaxshi savdo va iqtisodiy hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yadi. Xususan Buxoro amirligiga to'xtaladigan bo'lsak, 1844-yilga kelib O'rta Osiyo davlatlari- Rossiya tashqi savdosida Buxoro amirligining ulushi 25% ni tashkil qilgan bo'lsa 1864-yilga kelib esa 42 % ni tashkil qila boshlaydi. Bu davrda Buyuk Britaniya josuslari va tovarlarining O'rta Os'yoga kirib kelishining kengayishi Rossiyani xavotirga sola boshlaydi. Buyuk Britaniya ham bu masalada alohida to'xtalib, Banorasdan ya'ni Hinsdistondan kiritilayotgan ingliz tovarlarini o'z narxidan 6-9 marta arzon sota boshlaydi. Kuchli davlatlar o'rtasidagi mustamlakalarni ko'paytirish siyosati aynan ilm fanga ham ta'sir qiladi. XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyoga Buyuk Britaniya hukumati tomondan bir qancha ekspeditsiyalar jo'natildi hamda ular moliyaviy jihatdan ta'minlanadi. To'g'ri, ushbu ekspeditsiyalarning ko'pi ilmiy maqsadlar uchun tashrif buyurganliklarini bildirsa-da, ammo o'sha "ilmiy" maqsadlarning asl mohiyatini o'lkani yaxshiroq bilish, uning foydali yer osti zahiralari o'rganish hamda strategik maqsadlarni ko'zlaganligini nazardan qochirmasligimiz kerak.

XIX asr o'rtalarida ingliz olimi Genri Yul Amudaryoning yuqori oqimini tadqiq etish maqsadida ushbu hududga keladi. Sayohati va tadqiqotlari natijasida o'z kitobi va kartasini yaratadi. Genri Yul kartasida Qo'qon xonligining Farg'ona vodiysidagi barcha yirik aholi manzillari aks ettirilgan hamda "Qo'qon xonligi" nomli yozuv ham berilgan. G'arbiy Yevropada Markaziy Osiyo jumladan O'rta Osiyoning hududlari aks ettirilgan eng yaxshi kartalar frantsuz kartografi T.Klaprotga tegishlidir. U 1829 yilda "Osiyoning yangi kartasi" ni nashr ettirdi. 1863 yilda esa T.Klaprot "Markaziy Osiyo kartasi"ni chop ettiradi. Karta G'arbiy Yevropada XIX asrning so'nggi choragiga qadar keng qo'llanilgan. Rus harbiylarining XIX asr 60-yillarida O'rta Osiyoning ichkarisiga qilgan harbiy yurishlari Angliya hukmron doiralarini tashvishga solgan bo'lsa, Yevropaning boshqa mamlakatlarida Turkistonga katta qiziqish uyg'otdi. 1877 yilda Berlinda nemis olmi Fridrix Ferdinand fon Rixtgofenning "Xitoy. Shaxsiy sayohatlar va keyingi davrdagi chuqur o'rganish natijalari" nomli to'rt jilddagi monografiyasi e'lon qilindi. Ushbu to'rt jildli kitobning har biri ma'lum bir fan tarmog'iga bag'ishlangan bo'lib, u asosan Xitoy va unga qo'shni davlatlarning tadqiqi bilan bog'liq holda yaratilgan. F.F. Rixtgofenning monografiyasi asosan Buyuk Ipak yo'lining tadqiqotiga bag'ishlangan bo'lsa-da, u ana shu yo'lda katta ahamiyatga ega bo'lgan O'rta osiyo haqida ham batafsil ma'lumot beradi. Shuningdek, u O'rta Osiyoga doir tadqiqotlar va unda xitoylar, arablar va yevropaliklarning ishtirokini batafsil tahlil qilgan.

1865 yilda rus podshosi qo'shinlari M.G.Chernyaev boshchiligidagi Toshkent shahrini ishg'ol qilganlaridan 8 yil o'tgach, o'lkada harbiy harakatlar olib borilayotgan bir davr - Qo'qon va Xiva xonliklariga qarshi harakatlar kuchaygan pallada –O'rta Osiyoga AQShning Rossiyadagi bosh konsuli Yevgeniy Skayler tashrif buyuradi.Ye.Skayler O'rta Osiyoga 1868 yildayoq qiziqib qolgan edi. O'shanda u moskvalik savdogarlar orasidagi yaxshi aloqalari tufayli Orenburgga tashrif buyurib,u yerda paxta savdosini o'rgangan. O'lkaga kelish uchun u rasmiy doiralarning maxsus ruxsatnomasinioladi. Uning sayohatini rus harbiy ma'murlari A.M.Gorchakov, D.A. Milyutin va K.P.Kaufman ma'qullaydi. Yevginey Skayler O'rta Osiyoga tashrif buyurgan G'arblik sayohatchilarning dastlabki vakili bo'lishi bilan birga AQSh hukumatining Rossiyadagi diplomatik vakili ham edi.Keyinroq 1876 yilda ushbu nashr muallif tomonidan to'ldirilib, o'zi ko'rgan-bilganlarini hamda eshitganlari asosida kengaytirilib “Turkiton: Rus Turkistoni, Qo'qon, Buxoro va G'o'ljaga sayohat qaydlari” nomli ikki jildli kitob holida ilk bor London (Buyuk Britaniya) nashr etiladi.

1725-yil Xivaga kelgan Rossiya elchisi Florio Beneveni estaliklarida ilmiy jihatdan muhim ma'lumotlar yozib qoldirgan. Shuningdek, Rossiya elchisi sifatida Xiva xonligiga 1819-yilda kelgan N.I.Muravyov ham yozib qoldirgan estaliklar eng qimmatli manbalar qatorida turadi. “Estaliklar” Xiva to'g'risida, qadimiy obidalar, davlat boshqaruv tizimi, hunarmandchilik va savdo aloqalari haqida batafsil ma'lumot beradi. U o'z kitobida “Xiva aholisi o'zining mashaqqatli mehnati bilan cho'l-u biyobonni hosildor o'lkaga aylantirgan. Atrof ekinzor maydon-bug'doyzor, sholipoya, uzumzor va shirin- shakar bog'” deya yozib qoldirgan.<sup>2</sup>

1842-yil Xiva va Rossiya o'rtasida “Majburiyatlar akti” shartnomasining imzolanishiga erishgan elchi G.Danilevskiy o'zi bilan Xivaga kelgan tabiatshunos olim R.Baziner hammuallifligida “Xiva va xonlikning boshqa shaharlari hamda qishloqlari savdo-sotig'I va sanoati” nomli asar yozib qoldirgan.

O'rta Osiyo haqidagi ma'lumotlarni faqatgina Rossiya yoki Buyuk Britaniya olimlarining asarlarida emas balki fransuz hamda nemis tadqiqotchilarining ham kitoblaridan ma'lumotlar olishimiz mumkin. Nemis sharqshunosi Vilgelm Siversning “Osiyo” deb nomlangan monografiyasi 1896 yilda Sant-Peterburgda rus tiliga tajima qilinib nashr etiladi. Kitobda ko'plab illyustratsiyalar berilgan bo'lib, 16 ta kartani o'zida jamlagan. Kartalarning barchasida O'rta Osiyo hududi aks ettirilgan.Ular orasida diqqatga sazavori “Osiyoda

<sup>2</sup> “O'zbekiston tarixi” Usmon Jo'rayev, Qamar Usmonov toshkent 2017

koloniya (mustamlaka) mulklarning o'sishi" nomli kartasi muhim sanaladi. Unda Rossiya imperiyasi tomonidan 1689-1800 yillarda qozoq dashtlari, 1800-1855 yillarda janubiy qozoq yerlari (Kazalinsk, Verniy, Kopal), 1855-1900 yillarda esa Buxoro, Qo'qon, Xiva xonliklari va turkmanlar to'la istilo etilganligi to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, asarda O'rta Osiyoning tarixi va madaniyatiga oid ma'lumotlar ham uchraydi. XIX asr oxirlarida nemis olimi Fridrix Fon Gilvald to'rt jilddan iborat "Yer va uning xalqlari" nomli asarini yaratadi. Asarning ikkinchi jildida O'rta Osiyo, aniqrog'i Rossiyaga tobe Turkiston haqida so'z yuritiladi. Asarda o'lkaning geografik o'rni, aholisi, urf-odatlar haqida boy ma'lumotlar berilgan. Buxoro haqida so'z yuritilib, muallif shunday yozadi: "Yana bir yarim mustqil xonlik Buxoro bo'lib, u Xivadan avvalroq bo'ysundirildi (1868 yilda). Mashhur Temur va uning avlodlari davrida Buxoro Osiyodagi musulmon qudratining ramzi sifatida yirik shahar hisoblanar edi. 1868 yilda Rossiyaga vassal bo'lgandan so'ng Buxoro o'tgan shonli qudratini eslab endilikda tang bir davrni boshidan kechirmoqda". F.fon Gelvald Turkistonning Rossiya istilosidan so'ng ko'rayotgan jabri va nochorligini tan olsada ko'p hollarda Rossiyaning o'lkaga "manfaat"li ta'siri mavjudligini bayon qiladi.

1876-1877 yillarda frantsiyalik sayyoh Jan Uyfalvi Farg'ona vodiysiga sayohat qiladi. Uning sayohati Fransiya hukumati tomonidan tashkil etilgan bo'lib, bu haqda muallifning o'zi shunday yozadi: "Fransiya hukumati tomonidan Rossiya, Sibir va Turkistonga arxeologik, antropologik antropologik, etnografik va filologik tadqiqotlar maqsadida yuborilgan edim. Men..., Orol dengizi bo'ylari, Sirdaryo, Toshkent, Samarqand, Zarafshon vodiysining yuqori qismi, Farg'ona mamlakatlariga birin-ketin sayohat qildim". "O'rta Osiyoning etnografik kartasi" da Jan Uyfalvi o'lkadagi asosan ko'pchilikni tashkil etuvchi xalqlarni o'z kartasiga tushirgan. Uni quyidagicha izohlash mumkin:

- 1.Farg'ona vodiysida asosan o'zbeklar, qipchoq va qoshg'arliklar
- 2.Samarqand, Kattaqo'rg'onda tojik va eroniylar
- 3.Hisor, Qarshida o'zbeklar
- 4.Jizzax, Toshkent, Chimkent va Avliyootada o'zbeklar
- 5.Qozog'iston yerlarida qozoqlar va qirg'izlar
6. Qirg'iziston, Pomir, Oloyda Qora qirg'iz va qirg'iz qipchoqlar
7. Samarqand, Kattaqo'rg'on, Xo'jand, Chinoz, Toshkent, Chimkent, Turkiston, Avliyoota, Marg'ilon, Andijon, Namangan, Kopal hududlarida esa ruslar keng tarqalganligi haqida ma'lumotlar berib o'tgan.

To'g'ri o'sha davrda chet ellik tadqiqotchilarga O'rta Osiyo haqidagi ma'lumotlar yig'ish va ularni hukumatga yetkazish kabi ko'plab topshiriqlar berilgan, ammo bu kabi topshiriqlar ortidan O'rta Osiyo haqida qimmatli ma'lumotlar vujudga kelgan va bu biz uchun asosiy xolisona ma'lumotlar bo'la oladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. "Geografiya" P.G'ulomov, P.Baratov Toshkent-2017
2. "O'zbekiston tarixi" Usmon Jo'rayev, Qamar Usmonov toshkent 2017
3. N. Topildiyev "Qo'qon xonligining Rossiya bilan diplomatik aloqalari tarixidan" Toshkent-2007.
4. S.Tillaboyev, A.Zamonov "O'zbekiston tarixi" Toshkent-2019.
5. <https://oligoh.uz>